O‘ZBEKISTON POCHTASI AJ

Tursunbekov Bunyodbek Anvarjonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Menejment fakulteti KB-76/23 guruh talabasi
bunyodtursunbekov@gmail.com
+998997227102

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Pochtasi AJ ning faoliyati, rivojlanish bosqichlari va zamonaviy pochta xizmatlari yoritilgan. Shuningdek, korxonaning logistika, moliyaviy va elektron xizmatlarni takomillashtirishdagi o‘rni hamda mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: pochta tizimi, logistika, elektron xizmatlar, kommunikatsiya, raqamlashtirish, pochta aloqasi, moliyaviy xizmatlar, transport tizimi.

Abstract: This article covers the activities, stages of development and modern postal services of the Uzbekistan Post JSC. It also analyzes the role of the enterprise in improving logistics, financial and electronic services, as well as its importance in the country’s economy.

Keywords: postal system, logistics, electronic services, communication, digitization, postal services, financial services, transport system.

Аннотация: В данной статье рассматриваются деятельность, этапы развития и современные почтовые услуги АО «Почта Узбекистана». Также анализируется роль предприятия в совершенствовании логистических, финансовых и электронных услуг, а также его значение для экономики страны.

Ключевые слова: почтовая система, логистика, электронные услуги, связь, цифровизация, почтовые услуги, финансовые услуги, транспортная система.

Kirish

Bugungi kunda dunyo miqyosida iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishi bevosita mamlakat ichidagi yirik iqtisodiy subyektlar, ayniqsa, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligi, ochiqligi va korporativ boshqaruv tizimining mukammalligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Korporativ boshqaruv — bu nafaqat biznes faoliyatini boshqarishning zamonaviy yondashuvi, balki moliyaviy shaffoflik, aksiyadorlar huquqlarining himoyasi, strategik qarorlar qabul qilish jarayonida manfaatdor tomonlar ishtirokini ta’minlovchi muhim mexanizm sifatida qaralmoqda. Ayni paytda O‘zbekiston Respublikasi hukumatining iqtisodiy islohotlar dasturi doirasida davlat korxonalarini aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirish, ularni xususiylashtirish, ularning faoliyatini xalqaro standartlarga moslashtirish va jahon amaliyotida mavjud korporativ boshqaruv tizimlarini bosqichma-bosqich joriy etish bo‘yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu borada aloqa va logistika sohasida faoliyat yurituvchi yirik davlat kompaniyalari alohida e’tibor markazida turibdi. Shunday korxonalardan biri – “O‘zbekiston pochtasi” aksiyadorlik jamiyati bo‘lib, u mamlakat pochta aloqasi tizimining markaziy operatori sifatida o‘z faoliyatini yuritib kelmoqda. Mazkur jamiyat nafaqat an’anaviy pochta xizmatlarini ko‘rsatish, balki logistika, elektron tijorat, moliyaviy xizmatlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida integratsiyalashgan servislarni taqdim etish orqali O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmasida alohida o‘rin egallaydi. “Uzbekiston pochtasi” AJning tashkil etilishi, aksiyadorlik kapitali shakllanishi, boshqaruv organlari faoliyati, aksiyalarning nominal va bozor qiymati, dividend siyosati, korporativ hujjatlar tizimi hamda yirik bitimlar bo‘yicha yuritilgan shaffof siyosat — bularning

barchasi jamiyatning strategik barqarorligini belgilovchi omillar sifatida qaraladi. Mazkur tadqiqotda jamiyat faoliyatining turli jihatlari tizimli ravishda yoritiladi, jumladan - aksiyadorlik kapitalining hajmi va tuzilishi, aksiyadorlar tarkibi va ulushlari, chiqarilgan aksiyalar turi, soni, nominal va bozor qiymati, jamiyatning tashkiliy boshqaruv tuzilmasi, kuzatuv kengashi a'zolari, ularning mustaqillik darajasi, ularning faoliyatini muvofiqlashtiruvchi qo'mitalar tarkibi, kuzatuv kengashi a'zolariga so'nggi yillarda berilgan mukofotlar miqdori, ichki korporativ hujjatlar tizimi va ularning amaliy ahamiyati, oxirgi besh yildagi dividend siyosati va ko'rsatkichlari, jamiyat faoliyatiga ta'sir qiluvchi muhim faktlar va bitimlar, affillangan shaxslar va ularning jamiyat bilan o'zaro aloqalari.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — "O'zbekiston pochtasi" AJning moliyaviy va boshqaruv tizimi tahlili asosida uning korporativ boshqaruv amaliyotini baholash, mavjud kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlash, shuningdek, xalqaro tajriba asosida takliflar ishlab chiqishdan iboratdir. Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi: tizimli tahlil, taqqoslash usuli, statistik ko'rsatkichlar tahlili, me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi va korporativ axborotlarni tahlil qilish. Bunda O'zbekiston Respublikasi qonunlari, aksiyadorlik jamiyatlariga oid xalqaro amaliyotlar, "O'zbekiston pochtasi" AJning ochiq manbalarda e'lon qilingan yillik hisobotlari va boshqa rasmiy ma'lumotlar asos qilib olindi. Ushbu ish natijalari, ayniqsa, O'zbekistonda korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish, pochta-logistika sohasidagi yirik kompaniyalar faoliyatini baholash va ularning ochiqlik darajasini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

1.Xalqaro korporativ boshqaruvni rivojlantirish va uning institutsional asoslari

Korporativ boshqaruv — bu kompaniya ya'ni aksiyadorlik jamiyati faoliyatini aksiyadorlar, direktorlar kengashi va ijroiya organi o'rtasidagi munosabatlar orqali samarali tashkil etish tizimidir. Xalqaro korporativ boshqaruv esa ushbu tizimning xalqaro me'yorlar, tajribalar va standartlar asosida rivojlanishidir. U global moliya bozorlari, transmilliy kompaniyalar va investorlarning manfaatlarini uyg'unlashtiradi. Xalqaro Korporativ boshqaruvni rivojlanish omillariga quyidagilar kiradi: galobalizatsiya jarayonlari – korporatsiyalar faoliyatining turli davlatlarda kengayishi. Bundan tashqari investitsiya muhitini yaxshilash zarurati – xorijiy investorlar ishonchini oshirish va Moliyaviy inqirozlar saboqlari – risklarni kamaytirish va shaffoflikni ta'minlashdir. OECD va IFC standartlari esa – xalqaro me'yorlarga asoslangan boshqaruv madaniyatini shakllantirishdir. Xalqaro korporativ boshqaruvning asosiy tamoyillari nimalardan iborat? Aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish, Korporativ axloq va shaffoflikni ta'minlash, kuzatuv kengashining mustaqilligi va mas'uliyati, axborotlarni ochiqlik asosida taqdim etish, manfaatdor tomonlar bilan o'zaro hamkorlik, ichki nazorat va audit tizimining samaradorligidan iboratdir. Korporativ boshqaruvning xalqaro darajada samarali ishlashi uchun institutsional asoslar muhim rol o'ynaydi. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1.1-Jadval

Institutsional asos	Tavsif
Huquqiy baza	Aksiyadorlik jamiyatlari, korporativ huquq va audit bo'yicha qonunlar
Davlat organlari	Qimmatli qog'ozlar bozori qo'mitasi, korporativ boshqaruv agentliklari
Moliyaviy institutlar	Banklar, investitsiya fondlari, birjalar
Professional assotsiatsiyalar	Direktorlar instituti, auditorlar palatasi
Ta'lim va ilmiy markazlar	Menejment akademiyalari, universitetlar, trening markazlari
Xalqaro tashkilotlar	OECD, IFC, World Bank, UNCTAD, Basel Committee va

Institutsional asos	Tavsif
	boshqalar

Xalqaro korporativ boshqaruvning rivojlanish yo'nalishlari korporativ boshqaruv kodekslarini joriy etish va yangilash, mustaqil direktorlar institutini kuchaytirish, shaffoflik va ESG hisobotlarini rivojlantirish va axborot texnologiyalaridan boshqaruvda foydalanish va xalqaro reyting shuningdek, baholash tizimlarida ishtirok etishdan iboratdir. Demak, shuni aytishimiz mumkinki, xalqaro korporativ boshqaruvning rivojlanishi — bu korporatsiyalarni shaffof, mas'uliyatli va barqaror faoliyat yuritishga undovchi mexanizmdir. Uning institutsional asoslari mustahkam bo'lsa, mamlakat investitsion jozibadorligi va iqtisodiy raqobatbardoshligi ortadi.

2.Milliy kompaniyalarda XKB standartlarini qo'llanishi
(O'zbekiston pochtasi AJ misolida)

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlar chuqurlashib, korxonalar faoliyatini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish jarayoni jadallashayotgan bir paytda, bu jarayonning muhim yo'nalishlaridan biri buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (Xalqaro Buxgalteriya Hisobi Standartlari – XBS yoki Xalqaro Moliyaviy Hisobot Standartlari – XMHS) o'tishdir. Milliy kompaniyalarda ushbu standartlarning qo'llanishi shaffoflikni ta'minlash, investorlar ishonchini oshirish hamda korxonalarning global iqtisodiy maydondagi raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, O'zbekiston Pochtasi AJ misolida bu jarayon davlat ishtirokidagi yirik milliy kompaniyalarning modernizatsiya yo'lida muhim bosqich hisoblanadi. O'zbekiston Pochtasi AJ mamlakatimizda pochta aloqa xizmatlarini ko'rsatish bilan bir qatorda, moliyaviy xizmatlar, elektron savdo, logistika va elektron to'lov tizimlarini ham rivojlantirib kelmoqda. Shu sababli kompaniya faoliyatida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga asoslanish nafaqat ichki boshqaruvni takomillashtiradi, balki xorijiy hamkorlar bilan moliyaviy axborot almashinuvida yagona tushuncha va mezonlarni yaratadi. Xalqaro standartlar (ayniqsa, IFRS 15 – "Daromadlarni tan olish", IFRS 16 – "Ijara", IFRS 9 – "Moliyaviy asboblar" kabi) asosida hisobot yuritish O'zbekiston Pochtasi AJga o'z daromad va xarajatlarini to'liq, haqqoniy hamda xalqaro mezonlarda aks ettirish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni (2020-yil 13-aprel, №ZRU-613) va "Moliyaviy hisobot milliy standartlari"ni xalqaro standartlarga yaqinlashtirish to'g'risidagi hukumat qarorlari bu boradagi asosiy huquqiy bazani tashkil etadi. Mazkur qonunlarda milliy korxonalar, ayniqsa yirik aksiyadorlik jamiyatlari, davlat ishtirokidagi kompaniyalar moliyaviy hisobotni xalqaro standartlarga muvofiq yuritishlari belgilangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021-yil 24-fevralda qabul qilingan PQ–4996-son qarorida "O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi va audit tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish konsepsiyasi" tasdiqlanib, 2025-yilgacha bosqichma-bosqich to'liq o'tish choralari ko'zda tutilgan. Shu asosda O'zbekiston Pochtasi AJ ham o'z hisob siyosatini qayta ko'rib chiqib, IFRS talablari asosida moliyaviy natijalarni shakllantirishga kirishgan. Bundan tashqari, korxona faoliyatida xalqaro audit talablari asosida yillik moliyaviy hisobotni mustaqil auditorlik tashkilotlari tomonidan tekshirish amaliyoti yo'lga qo'yilgan. Bu esa "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonun (yangi tahriri, 2021-yil 25-yanvar) hamda "Korporativ boshqaruv kodeksi" talablariga muvofiq holda, kompaniya faoliyatining oshkoraligini oshirish va manfaatdor tomonlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. O'zbekiston Pochtasi AJda XMHS joriy etilishi natijasida, moliyaviy axborotlarning xalqaro investorlar va kredit tashkilotlari tomonidan tahlil qilinishi osonlashmoqda. Misol uchun, kompaniya o'z aktivlarini, majburiyatlarini va foydasini xalqaro mezonlarda hisobga olib, "fair value" (adolatli qiymat) asosida baholaydi, bu esa real moliyaviy holatni aniq aks ettirish imkonini beradi. Shuningdek, XMHS asosida hisobot yuritish korxonaga yangi investitsiyalarni jalb qilish, xorijiy pochta va logistika kompaniyalari bilan strategik hamkorlik o'rnatishda moliyaviy ishonchlilik kafolati sifatida xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Pochtasi AJda Xalqaro Buxgalteriya Hisobi Standartlarini qo'llash milliy kompaniyalarning iqtisodiy faoliyatini global mezonlarga moslashtirishda muhim qadamdir. Bu jarayon nafaqat kompaniya

ichki boshqaruv tizimini takomillashtiradi, balki davlat miqyosida iqtisodiy shaffoflik, investitsion jozibadorlik va xalqaro moliyaviy tizim bilan integratsiyani kuchaytiradi. Shu bois, milliy kompaniyalarda, xususan, O‘zbekiston Pochtasi AJ misolida XBS standartlarini amaliyotga tatbiq etish nafaqat zamon talabi, balki barqaror rivojlanishning asosiy omili hisoblanadi.

Aynan ushbu standartlarning asosiy maqsadi - kompaniyalarda investorlar ishonchini oshirish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va bozor iqtisodiyotida samarali boshqaruv tizimini yaratishdir. Milliy kompaniyalar uchun ahamiyati esa yuqoriada keltirganimizdek boshqaruvni shaffofligini va mustaqil direktorlar institutini kuchaytiradi. Bundan tashqari investorlar uchun ishonchli muhit yaratish shuningdek, audit, risk-menejment va kadrlar siyosatini xalqaro darajaga olib chiqishiga zamin bo’la oladi. Shu standartlarga asoslangan holda milliy ko’rxonalardan bir bo’lgan O’zbekiston pochtasi AJ misolida ko’rishimiz mumkin. Eng avvalo, ushbu kompaniyaning tashkil etilishidagi muhim bo’lgan o’rinlaridan biri bo’lgan Ustav kapitaliga yuzlansak

Aksiyadorlik kapitali qiymati, aksiyadorlar tarkibi va ularning ulushi.

2.1-Jadval

<O'zbekiston pochtasi> aksiyadorlik jamiyati

	ҚҚ коди	Дона	Номинал (UZS)	Охирги сотилган нархи	Устав капитали(UZS)	Савдо қунидаги нархи (UZS)	Дата последней сделки	Бозор капитализацияси(UZS)
Оддий акция	UZ7005280001 UPOS	27 365 614	1 905	10749.97	52 563 506 760	10749.97	17.10.2025	294 611 541 621.58
Привилегированная акция	UZ700528K011 UPOSP	226 778	1 905	Отсутствует		16000.0	16.10.2025	

O‘zbekiston pochtasi AJ ning 2025-yildagi xabarida jamiyatning ustav kapitali ≈38,06 mlrd so‘mdan **52,56 mlrd** so‘mgacha oshirilgan ekani aytilgan. Jamiyat aksiyadorlari tarkibida davlat tashkilotlari shuningdek, 16 mingdan ortiq yuridik va jismoniy shaxslar ishtirok etishi haqida bayonot berilgan.

2.2-Jadval

Aksiyador turi	Taxminiy ulushi (%)	Izoh
Davlat tashkilotlari (masalan, Iqtisodiyot va Moliya vazirligi, Davaktiv, davlat jamg‘armalari)	**60–70%**	Bu yirik ulush asosiy nazoratni davlatda saqlashga xizmat qiladi. Ko‘pincha strategik tarmoq (pochta/logistika) uchun shunday bo‘ladi.
Davlat ulushi mavjud bo‘lgan boshqa yuridik shaxslar	**10–15%**	Masalan, boshqa davlat kompaniyalari yoki ulushi bo‘lgan jamiyatlar. Ular investitsion yoki hamkorlik asosida aksiyalarni egalik qilgan bo‘lishi mumkin.
Xususiy investorlar (yuridik shaxslar)	**5–10%**	Odatda kichik yoki strategik sarmoyadorlar — tijorat banklari, invest kompaniyalar.
Jismoniy shaxslar (aksiyadorlar, sobiq xodimlar va boshqalar)	**10–15%**	Odatda ommaviy aksiyalar savdosi yoki xodimlarga tarqatilgan ulushdan kelib chiqqan. Ularning soni ko‘p — 16 000 dan ortiq, biroq har birining ulushi kichik.

Bu struktura kapital ulushi asosida talqin qilinadi. Demak, ko‘rib turganimizdek O‘zbekiston pochtasi AJda kompaniya boshqaruvi va qaror qabul qilishda eng ko‘p ta’sirga ega tomon bu — davlat

tashkilotlaridir. Ular odatda Boshqaruv kengashini shakllantiradi, shuningdek, dividend siyosatini belgilaydi va investitsion loyihalarni ma'qullaydi. Aynan jismoniy shaxslar ko'p bo'lishiga qaramasdan, ularning ulushi oz, va ular aksariyat hollarda ovozi kam bo'lgan minoritar aksiyadorlar hisoblanadi. Nega bu muhim? - deb savol beradigan bo'lsak avvalo, aksiyadorlar tarkibining tuzilmasi quyidagi jihatlar uchun bevosita ahamiyatga ega. Birinchidan kompaniyada qaror kim tomonidan qabul qilinishi, dividend siyosatining kim foydasiga shakllanishi va potensial xususiylashtirish va yana bir tomondan investor jalb qilish imkoniyatlari, korporativ boshqaruvda mustaqil direktorlar va ozchilik manfaatlarini himoya qilish darajasi aynan muhim hisoblanadi.

Jamiyat tomonidan chiqarilgan aksiyalar miqdori, nominal qiymati, oddiy va imtiyozli aksiyalar miqdori, aksiyalarning bozor qiymati.

2.3-Jadval

Бошланғич нархи	Максимал нархи	Минимал нархи	Чиқарилув Бозор Қиймати UZ705457K018
0	0	0	25 766 400 000

UZ705457K018
IPTBP
<Ipoteka-bank> aksiyadorlik tijorat ipoteka banki

Номинал (UZS)

1

Савдо қунидаги нархи (UZS)
17.10.2025

3.2

Bu yerda O'zbekiston pochtasi AJ tomonidan chiqarilgan 25 766 400 000 dona miqdordagi aksiyalarni 1UZS nominal qiymati bilan bozorga chiqqanligini ko'rishimiz mumkin. Aynan 17-oktyabr kunida bozorda ushbu aksiyalarning narxi 3.2 UZSda.

2.4-Jadval

Ko'rsatkich	Qiymat (UZS)	Izoh
Nominal qiymat	1 so'm	Aksiyaning ustav kapitalida belgilangan rasmiy qiymati.
Bozor narxi	3.2 so'm	Investorlar bozorda aksiyani sotib olayotgan haqiqiy narx.


Bozor qiymati nominaldan 3,2 baravar yuqori Bu shuni anglatadiki, korxona aksiyalariga bo‘lgan talab yuqori. Investorlar kompaniyani istiqbolli deb hisoblashadi shuningdek, kapitalizatsiya o‘sish ehtimoli agar aksiyalar umumiy soni N bo‘lsa, korxonaning bozor qiymati taxminan:


Bozorqiymati=3.2×N

Bu nominal qiymatga nisbatan 220% dan ortiq o‘sishni bildiradi. Moliyaviy barqarorlik Bozor narxining nominaldan ancha yuqori bo‘lishi, foydalilikning oshganligi, ishonchli boshqaruv, ijobiy obro‘ (reputatsiya), yoki strategik istiqbollar borligini ko‘rsatadi. Ehtiyot chorasi Biroq, agar bu farq haddan tashqari katta bo‘lsa (masalan, 5–10 baravar), u holda bozor spekulyatsiyasi (ortiqcha shov-shuv) bo‘lishi mumkin.

Kompaniya qiymati oshgan, bu yaxshi ko‘rsatkich. Investorlar ishonchi yuqori. Nominalga nisbatan 3,2x o‘sish — korxona faoliyati ijobiy baholanayotganidan dalolat beradi.

2.5-Jadval





15.09.2025 02.10.2025 Қидирув Юклаб олиш


Савдо натижалари


Сана	Ёпиш нархи	Ўзгартириш	Миқдори қимматли қоғозлари	Савдо таклифлар (UZS)
30.09.2025	3.19	▼ 0.02	1 542 011	4 685 715.53
29.09.2025	3.21	▼ 0.02	175 785	557 662.53
26.09.2025	3.23	▲ 0.16	35 529	114 738.88
25.09.2025	3.07	▼ 0.18	97 993	310 796.98
24.09.2025	3.25	▲ 0.05	226 317	734 281.85
23.09.2025	3.2	▲ 0.16	85 223	274 816.88
22.09.2025	3.04	▼ 0.18	52 862	168 306.46
19.09.2025	3.22	▲ 0.09	10 992	35 164.32
18.09.2025	3.13	▼ 0.11	68 699	217 894.96
17.09.2025	3.24	0	10 546 019	31 759 783.27
16.09.2025	3.24	0	2 714 130	8 407 502.85

Oddiy aksiyalarning soni 27 365 614 dona va imtiyozli aksiyalarning soni esa 226 778 dona.

Aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy ko’rsatkichi quyidagicha:

2.5-Jadval






Quyidagi jadvalga nazar tashlasak bunda O'zbekiston pochtasi AJ ning aktivlari va majburiyatlari (qarz)ni ko'ramiz. Ushbu ko'rsatkichlar shuni ko'rsatadiki O'zbekiston pochtasi AJ da hozirgi vaziyat o'sish jarayonidadir.

Йил якуни бўйича асосий молиявий кўрсаткичлар					
Кўрсаткич	2015	2017	2018	2019	2020
Соф Фойда (%)	3.18	0.16	-23.5	0.12	0.14
Капиталнинг рентабеллиги (ROE) (%)	12.42	0.61	-127.95	0.83	1.22
Активлар рентабеллиги (ROA) (%)	3.61	0.16	-19.18	0.11	0.16
Қарз Нисбати (%)	70.92	73.04	85.01	86.55	86.68
Қарзнинг Капитал нисбати (%)	243.91	270.95	566.93	643.61	650.87

2021	2022	2023	2024
0.25	0.27	0.21	0.14
0.54	0.62	0.62	0.59
0.21	0.31	0.27	0.21
60.91	50.17	57.36	63.74
155.83	100.69	131.41	175.8

O‘zbekiston Pochtasi AJning tarkibiy tuzilmasi zamonaviy aksiyadorlik jamiyatining aniq boshqaruv tizimini ifodalaydi. Ushbu mexanizmda boshqaruv vertikali strategik qarorlar va ijro intizomi o‘rtasida muvozanatni ta’minlaydi. Tuzilma shunday tuzilgan-ki, yuqori pog‘onadagi Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi strategik yo‘nalishni belgilab beradi. Kuzatuv kengashi esa nazoratni amalga oshiradi. Bosh direktor esa kundalik faoliyatni samarali boshqaradi. Bu esa boshqaruvning ochiqlik, javobgarlik va samaradorlik tamoyillarini mustahkamlaydi desak hech mubolag’a qilmagan bo’lamiz. Shuningdek, departamentlar va bo‘limlarning aniq ixtisoslashuvi ya’ni moliyaviy, pochta, logistika, IT, marketing va h.klar bir yo‘nalishda mas’uliyatni aniq taqsimlab, tizimda funktsional muvofiqlikni yaratgan.

Aksiyadorlik jamiyati tarkibiy tuzilmasi



Hududiy filiallar orqali esa butun mamlakat miqyosida xizmatlar uzluksiz amalga oshirilib

kelinmoqda. Umuman olganda, “O‘zbekiston Pochtasi” AJning tarkibiy tuzilmasi - boshqaruvning markazlashtirilgan, lekin moslashuvchan modeliga asoslangan bo’lib, davlat nazoratini saqlagan holda tijorat tamoyillarini joriy etishga imkon beradi. Yanada xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va raqamli transformatsiya uchun mustahkam institutsional poydevor yarata oladi. Shu sababli, mazkur tuzilma zamonaviy bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradi va jamiyatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi. O’zbekiston pochtasi AJ da Hududiy filiallar bo’limi ham mavjud bo’lib, ular har bir viloyat, tuman va mahalla darajasida xizmat ko‘rsatadi. Mahalliy mijozlarga bevosita xizmat ko‘rsatish bilan birgalikda ular pochta va moliyaviy operatsiyalarni ham amalga oshiradilar. Bundan tashqari markaziy bosh ofis tomonidan belgilangan siyosat va tartiblarni ham joylarda bajaradilar. Shular qatorida Pochta xizmatlari departamenti bo’limi va Huquqiy bo‘limlar ham o’z faoliyatini aynan ushbu aksiyadorlik jamiyatida o’z faoliyatlarini olib boradilar. Ularning asosiy vazifalari Pochta jo‘natmalarini tashish, qabul qilish va yetkazib berishni tashkil qiladi. Shuningdek xalqaro pochta almashuvini nazorat qilishadi. Huquqiy bo‘lim esa shartnomalar va yuridik hujjatlarni tekshirib, sud ishlari va huquqiy masalalarda jamiyat manfaatlarini himoya qiladi.

Jamiyat kuzatuv kengashi a’zolari, tarkibi va undagi mustaqil direktorlar ulushi.

Yana bir asosiy vazifamizdan bo’lgan Kengash a’zolarini ro’yxatini ko’rib chiqishimiz maqsadga muvofiqdir. Pekos Oleg Andreevich — Raqamli texnologiyalar vazirining birinchi o‘rinbosari. Egamberdiev Jamshid Sharifjonovich — Raqamli texnologiyalar vazirining maslahatchisi. Ishanxodjaev Asror Aslanovich — O‘zbekiston axborot texnologiyalari va ommaviy kommunikatsiya xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi raisi. Maxmudov Maxsum Mubashirovich — “UNICON.UZ” MChJ direktori. Muxitdinov Aziz Xakimovich — “Elektron hukumat” loyihalarini boshqarish markazi direktori. Qurbonov Alisher Samadovich — AJ “Aloqabank” boshqaruv raisining o‘rinbosari. Toxtiyarov Akram Nurmahamatovich — “O‘zbektelekom” AJ Boshqaruv raisining moliyaviy masalalari bo‘yicha o‘rinbosari. Usarov Shoxzod Bektosh o‘g‘li — Iqtisodiyot va moliya vazirligi transport xizmatlarini tartibga solish bo‘limi boshlig‘i. Roger Crook — Mustaqil a’zo vakili bo’lib o’z faoliyatini olib borishmoqda. Shuningdek, kengash oddiy a’zolar bilan bir qatorda bir qator doimiy qo‘mitalarni ham tashkil etadi — hujjatda bu qo‘mitalar va ularning raislari yoki a’zolari aniq ko‘rsatilgan. Misol uchun strategiya va investitsiyalar qo‘mitasi raisi — Roger Crook. Bundan yashqari audit qo‘mitasi — qo‘mita raisi — Toxtiyarov Akram hisoblanadi. Tayinlovlar va haq to‘lash qo‘mitasi, Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo‘mitasi va boshqa komissiyalar mavjudligi ham rasmiy yig‘ilish materiallarida qayd etilgan. Ma’lumot o’rnida shuni aytish joizki, mustaqil direktorlar ulushi Kengashda jami 9 a’zo ko‘rsatilgan. Hujjatda aniq 1 ta mustaqil a’zo — Roger Crook deb ko‘rsatilgan. Shunday qilib, mustaqil direktorlar ulushi ya’ni kengashdagi mustaqil a’zolar nisbati taxminan shunday ko’rinishda.

$$1/9 \times 100\% \approx 11.1\%$$

O‘zbekiston qonunchiligiga va ko‘plab kompaniya nizomlariga ko‘ra, kuzatuv kengashida kamida 2 ta mustaqil a’zoning bo‘lishi talab etilishi mumkin albatta, kompaniya turi va ustavga qarab. Hujjatda aynan bir mustaqil a’zo ko‘rsatilganligi shuni anglatadiki, yoki hujjat e’lon qilingan paytda bitta mustaqil a’zo bor edi, yoki boshqa mustaqil a’zolar o‘z nomlari bilan alohida ko‘rsatilmagan. Qisqa tahliliy xulosa va tavsiyalar Struktur jihatdan kengashga hukumat vakillari va sanoatm yoki ijtimoiy soha vakillari kiritilgan — bu davlat qiziqishini va sektor bilan yaqin bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Mustaqil direktorlar soni nisbatan kam — korporativ boshqaruv standartlari nuqtai nazaridan, bu mustaqil nazoratni kuchaytirish uchun yetarli emas. Xalqaro amaliyot va yaxshi korporativ boshqaruv tavsiyalari bo‘yicha kuzatuv kengashida bir nechta mustaqil direktor bo‘lishi muhim. Agar maqsad — korporativ boshqaruvni yaxshilash bo‘lsa, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi yoki Kengash tarkibini yangilash orqali mustaqil direktorlar sonini oshirish va Audit hamda Strategiya qo‘mitalarida mustaqil a’zolarni ko‘proq jalb qilish kerak. Kuzatuv kengashi qoshidagi qo‘mitalar va ularning son tarkibi quyidagi standartlarga asoslangan.

2.6-Jadval

№	Qo‘mita nomi	Asosiy vazifasi	Tavsiya etiladigan a'zolar soni	Tarkibi (kimlar bo‘lishi kerak)
1	**Audit qo‘mitasi**	Moliyaviy hisobotlar, ichki audit va ichki nazorat tizimini kuzatish; tashqi auditorni tavsiya qilish.	3–5	Kamida 2 mustaqil direktor; 1 moliyaviy/boekpert (buxgalter/ CFO emas).
2	**Strategiya va investitsiyalar qo‘mitasi**	Uzun muddatli strategiya, investitsiya loyihalari va kapital taqsimoti bo‘yicha tavsiyalar.	3–7	Aralash: 1–2 mustaqil a’zo, davlat/soha vakillari va 1 investitsiya/iqtisodiy ekspert.
3	**Tayinlash va kompensatsiya (Remuneration & Nomination)**	Kengash a’zolari va bosh direktor lavozimlariga nomzodlar, ularning mehnat shartlari va rag‘batlantirish siyosati.	3–5	Kamida 1 mustaqil direktor, HR yoki yuridik ekspert qo‘shilishi maqsadga muvofiq.
4	**Audit va xatarlarni boshqarish qo‘mitasi** *(yoki alohida Risk qo‘mitasi)*	Bankka xos bo‘lmagan xatarlarni va kamaytirish siyosati; operatsion va strategik xatarlar.	3–5	1–2 mustaqil a’zo, risk menejmenti eksperti. (Agar Audit qo‘mitasi mustaqil bo‘lsa, risk haqida alohida qo‘mita bo‘lishi mumkin.)
5	**Etika va korruptsiyaga qarshi kurash qo‘mitasi**	Etika kodeksi, korrupsiyaga qarshi siyosat, shikoyatlar va ichki nazorat.	3–5aniqlash	Mustaqil va yuridik/sha’r ekspertlardan iborat bo‘lishi ma’qul.
6	**Texnologiya va raqamlashtirish qo‘mitasi (IT/Innovation)**	IT strategiyasi, kiberxavfsizlik, raqamiy transformatsiya nazorati.	3–5	IT mutaxassisi, mustaqil direktor va biznes vakili.
7	**Bog‘langan tomonlar bitimlari qo‘mitasi**	Bog‘langan shaxslar bilan transaksiyalarni ko‘zdan kechirish va tasdiqlash.	3–5	Mustaqil a’zolar ustun bo‘lishi kerak (xatarlarni kamaytirish uchun).
8	**Ijtimoiy mas’uliyat va ekologiya (ESG) qo‘mitasi** *(agar kerak bo‘lsa)*	Korporativ ijtimoiy mas’uliyat, atrof-muhit va boshqaruv masalalari.	3–5	ESG yoki soha bo‘yicha ekspertlar + mustaqil a’zo.

Mustaqil direktorlar soni — Kuzatuv kengashida kamida 20–30% mustaqil a'zolar bo'lishi tavsiya etiladi. Qo'mitalarda esa audit va bog'langan tomonlar qo'mitasida mustaqil a'zolar ustun bo'lishi zarur. Qo'mitalar hajmi — 3 ta a'zodan kam bo'lmasligi kerak. Yirik kompaniyalarda 5–7 gacha bo'lishi mumkin. Raqobatbardoshlik va ekspertiza — Har bir qo'mita o'z faoliyati uchun zarur kompetensiyaga ega a'zolarni (moliyaviy, huquqiy, risk, IT, ESG) o'z ichiga olishi lozim. Huquqiy mustaqillik — Qo'mita qarorlari kengashga to'g'ridan-to'g'ri tavsiya sifatida keladi, ayniqsa audit va tayinlash masalalarida mustaqillik saqlanishi muhim. Yig'ilishlar chastotasi — Audit qo'mitasi — yil davomida kamida 4 marta; strategiya va nominatciya — yiliga 2–4 marta; boshqa qo'mitalar — ehtiyojga qarab. Yozma hujjatlar va hisobotlik — Har bir qo'mita yig'ilishi protokoli va yillik faoliyat hisobotini taqdim etishi kerak. Bu shaffoflik va hisobdorlikni oshiradi. Yangi qo'mita kerak bo'lsa — IT/ kiberxavfsizlik va ESG bugungi davr talabiga mos yangi qo'mitalar — ayniqsa raqamlashtirish jarayoni va ijtimoiy javobgarlik muhim bo'lgan tashkilotlar uchun afzaldir. Davlat ishtiroki yuqori bo'lgan tashkilot sifatida, Audit, Strategiya, va Tayinlash & Kompensatsiya qo'mitalariga alohida e'tibor qaratilishi zarur. Audit qo'mitasida mustaqil a'zolar kamida 2 tadan bo'lishi — soliq, moliyaviy va ichki nazorat sifatini oshirish uchun muhim. Bog'langan tomonlar (state-owned enterprises) bilan amaliyotlar ko'p bo'lsa, Bog'langan tomonlar bitimlari qo'mitasini tashkil etish zarur — bu shubhali operatsiyalar xavfini kamaytiradi. Raqamli xizmatlar va logistika bilan bog'liq tashkilotda IT/raqamlashtirish qo'mitasi — strategik ahamiyatga ega (kiberxavfsizlik, elektron xizmatlar uchun).

Xulosa

Xalqaro kompaniyalar tajribasi shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Pochtasi AJ korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirishda quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratishi kerak: Vakolatlar va javobgarlik tizimini aniq belgilash (Deutsche Post tajribasi); Komplayens va risklarni boshqarish tizimini kuchaytirish (Japan Post tajribasi); Ochiqlik va aksiyadorlar bilan muloqotni rivojlantirish (Royal Mail tajribasi); Raqamli boshqaruv va ESG siyosatini bosqichma-bosqich joriy etish. Xulosa qilib aytganda, xalqaro korporativ boshqaruv tizimining shakllanishi zamonaviy iqtisodiyotni barqaror va shaffof rivojlantirishda hal qiluvchi omil sifatida e'tirof etiladi. Xalqaro miqyosda qabul qilingan korporativ boshqaruv tamoyillari — mas'uliyat, shaffoflik, adolatlilik va hisobdorlik — kompaniyalarning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlash, investorlar ishonchini oshirish hamda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. O'zbekiston misolida, xususan "O'zbekiston pochtasi" AJ faoliyatida ushbu tamoyillarni amaliyotga joriy etish jarayoni asta-sekin shakllanib bormoqda. Kompaniyada korporativ boshqaruv kodeksi, kuzatuv kengashi, ichki audit tizimi va axborot shaffofligini oshirish mexanizmlari yo'lga qo'yilayotgani milliy miqyosda xalqaro standartlarga yaqinlashuvni ifodalaydi. Shu bilan birga, "O'zbekiston pochtasi" AJ tajribasini "Deutsche Post DHL", "Japan Post Holdings" va "Royal Mail Group" kabi xalqaro kompaniyalar bilan taqqoslaganda, ularning boshqaruv tizimida aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish, raqamlashtirish, ESG (barqaror rivojlanish) siyosatini tatbiq etish va mustaqil direktorlar faoliyatini kuchaytirish borasida ustunliklari mavjudligi ko'rinadi. Ushbu tajribalarni milliy kompaniya faoliyatiga moslashtirib joriy etish O'zbekiston korporativ boshqaruvining samaradorligini oshiradi, xalqaro investitsiya muhitini yaxshilaydi hamda davlat ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Shu tarzda, korporativ boshqaruvning xalqaro tamoyillarini chuqur o'zlashtirish O'zbekistonning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga, ochiq va javobgar biznes muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. PUL24 - Hammasi pul haqida+1
2. Christensen, C. M. (1997). The Innovator's Dilemma. Harvard Business Review Press. Innovatsiyalar va kompaniya barqarorligi o'rtasidagi bog'liqlik.
3. Apple Inc. Annual Reports (2015–2023) https://investor.apple.com (https://investor.apple.com/). Apple kompaniyasining rasmiy moliyaviy hisobotlari va strategik yo'nalishlari.

4. Porter, M. E. (2008). Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors. Free Press. Raqobatbardoshlikni oshirish strategiyalari.
5. Forbes, Bloomberg, The Verge, TechCrunch kabi texnologiya tahlil saytlaridagi maqolalar (2023–2024). Apple'ning oxirgi yangiliklari, AI strategiyasi va boj siyosatlarining ta'siri haqida.
6. Deloitte Insights va McKinsey Global Institute hisobotlari. Innovatsion rivojlanish, strategik boshqaruv va texnologik transformatsiyalar bo'yicha tahlillar.
7. Vikipedia va Google saytidan.
8. Kundalik yuritiladigan daftardan.
9. https://hbr.org/2020/11/how-apple-is-organized-for-innovation
10. https://admeducation.com/blog/swot-analysis-of-apple-iphone/
11. https://www.researchgate.net/publication/383476224_Analysis_of_the_Development_Status_and_Existing_Problems_of_Apple_Company